

O'ZBEK TEATR SAN'ATI TARIXI VA TEATR TANQIDCHILIGI RIVOJI.

Kadirova Guzal Nuritdinovna

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti

Email: qodirovagozal1986@gmail.com

(Toshkent, Uzbekiston)

Annotatsiya: Ushbu maqolada olim Mamajon Rahmonovning tadqiqodchilik faoliyati davomida o'zbek miliy teatr san'atining, paydo bo'lish tarixidan boshlab, to shu kungacha bo'lgan taraqiyot bosqichlarini o'rGANIB, o'z ilmiy izlanishlarida tadqiq qilib kelgani yoritilgan. Bu izlanishlar, zamonaviy teatr jarayonining shakllanish va rivojlanish bosqichlarini o'rGANISH mobaynida alohida ahamiyatga ega bo'lgan milliy dramaturgiya, aktyorlik va rejissorlik, teatr tanqinchiligi, teatr ishini tashkil qilish hamda ijodkor kadrlar yaratish sohasida olib borilgan ilmiy-amaliy faoliyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: teatr san'ati, drama, poeziya, spektakl, o'zbek adabiyoti, o'zbek teatri tarixi, ijodiy meros, trouppa.

Abstract: This article highlights the research work of scholar Mamajon Rakhmonov, who studied the developmental stages of Uzbek national theatrical art from its historical origins to the present day. His scientific investigations encompass various aspects of theater development. These studies emphasize the scholarly and practical activities conducted in the fields of national dramaturgy, acting and directing, theater criticism, theater management, and the nurturing of creative personnel. These areas are of particular significance in understanding the formative and developmental stages of the modern theatrical process in Uzbekistan.

Key words: theatrical art, drama, poetry, performance, uzbek literature, history of uzbek theater, creative heritage, troupe.

Kirish

San'atning vujudga kelishi va uning turlarga bo'linib rivojlanishi ulkan va boy o'tmishta egadur. Zero "Har bir xalqning qadimgi madaniyatini ravshan tasvir qiladigan narsa uning san'atidir" deya ta'riflagan buyuk teatrshunos olim Mamajon Rahmonovich Rahmonov.[1] Juda qadim zamonlardan buyon xalqimiz san'atning badiiy adabiyot, xalq amaliy bezak san'ati, me'morchilik, haykalataroshlik, tasviriy bezak san'ati, teatr, musiqa, badiiy suratkashlik, raqs, notiqlik va qiroat kabi turlari bilan shug'ullanganliklari haqida dunyo donishmandlari va faylasuflari mazkur faoliyatning badiiy mohiyati shuningdek, o'ziga xos xususiyatlarini o'rGANISH bilan qiziqqanlar. San'at hayotning

estetik mohiyatini aks ettiribgina qolmay, insonni o‘z-o‘ziga ko‘rsatuvchi ko‘zgu vazifasini ham o‘taydi. San’at insonni go‘zallikga chorlovchi badiiy kuchdir.

Biroq, biz san’atni umumlashgan holda emas, balki, teatr san’ati va uni o‘rganishda o‘zining zahmatli mehnatini qo‘sghan teatrshunos olim Mamajon Rahmonovich Rahmonov haqida so‘z yuritmoqchimiz. Bu borada avvalo teatr san’atiga ta’rif berishdan boshladik.

Teatr ko‘p tarmoqli, tarkibiy qismlarning birikmasidan tarkib topgan sintez san’at bo‘lib. Adabiyot, musiqa, opera, operetta, libretto, balet, tasviriylar san’at, raqs va arxitekturaning ajralmas birligini tashkil qiladi.

Uning tarkibiy qismi aktyor, dramaturg, rejissor, rassom, kompozitor, grimyor, libos ustasi, sahna ishchilari, xor, baletmeyster, vokal ansamblidan iborat bo‘lib, ular ijodini belgilab beruvchi mutaxassislari va oddiy tomoshabin kabi ulkan jamoa kiradi. Teatr san’ati xalq hayoti va uning milliy tarixi, madaniyati bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Teatr ommaning ma’naviy-madaniy, ijtimoiy-siyosiy hamda estetik tarbiyaisida muhim o‘rin tutadi. Teatr uzoq o‘tmishga ega bo‘lib, ibtidoiy davrda odamlarning mehnat jarayoni va diniy marosimlarda, bayramlarda, tabiat hodislariga, turli jonzotlarga, mavsumlarga sig‘inish kabi o‘yinlardan boshlanib, to shu kungacha turli ko‘rinishlarda takomillashib rivojlanib kelmoqda.[2]

Teatr tarixi va nazariyasi aktyor ijodi, dramaturgiya, rejessura, teatr arxetekturasi, dekoratsiya san’ati, teatr ta’limi, teatr tanqidchiligi va boshqa shu kabi masalallarni o‘z ichiga oladi. Ma’lumki teatrlar dastlab, drama teatrlari faoliyati bilan bog‘langan bo‘lsa, keyinchalik opera va balet, operetta, bolalar teatri, qo‘g‘irchoq teatri, havaskoorlar teatri estrada hamda sirk san’ati masalalarini ham o‘z ichiga oldi.

O‘zbekistonda milliy teatr tashkil topganligi va uning shakllanish yo‘llariga nazar tashlaydigan bo‘lsak, qariyb bir asrlik davrni bosib o‘tganligini guvohi bo‘lamiz.

20 asr boshlarida O‘zbekistonda Yevropa usulidagi teatrlarning yuzaga kelishi bilan teatr tanqidchiligi yuqori bosqichga ko‘tarildi. Shuni alohida ta’kidlash joizki, o‘zbek teatri va teatr tanqidchiligi rivojida Hamza Hakimzoda Niyoziy, Mirmulla Shermuhammedov, Cho‘lpon, S.Siddiq, Fitrat, Xurshid, G‘ozi Yunus kabi buyuk dramaturlarimizning xizmatlari katta.

O‘zbekistonda “Teatrshunoslik” mustaqil fan sifatida 20 asrning 50-yillaridan boshlab shakllandi. 19 asrning 2-yarmida esa, bu soha teatr tadqidchiligi shaklida ko‘rindi. Bu davrda matbuotda rus, tatar, ozarbayjon ziyolilaridan tashqari o‘zbek ziyolilari ham o‘zbek teatrlarining gastrollari haqidagi ko‘plab taqriz va maqolalar bilan chiqdilar.[3]

50-yillardan boshlab, Hamza nomidagi San’atshunoslik institutida o‘zbek teatr tarixini o‘ranishga kirishildi. Bu borada akademik Mamajon Rahmonovning ikki jildlik “O‘zbek teatr tarixi”, qadimiy va o‘rta asr teatriga bag‘ishlangan “O‘zbek teatr” kitoblari va

Muhsin Qodirovning “O‘zbek xalq og‘zaki dramasi”, “Masharaboz va qiziqchilik san’ati”, “Xalq qo‘g‘irchoq teatri” kabi monografiyalar taqdim etildi.

Munaqqid Mamajon Rahmonovning ilmiy izlanishlari va arxeologik topilmalar asosida guvohlik berishicha, Markaziy Osiyo sarhatlarida teatr san’ati tarixi yigirma ikki asrdan mo‘lroq hisob bilan o‘lchanar ekan. Bunga misol tariqasida miloddan avvalgi ming yilliklar o‘rtalarida Surxandaryo, Farg‘ona, Samarqand viloyatlarida mavjud bo‘lgan qadimiy shaharlar o‘rganilganda, ularning harobalaridan hayvonlar niqobini qiyib, turli harakatlar qilayotgan ibtidoiy odamlarning tasvirlari saqlanib qolganligi keltirib o‘tilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M.Rahmonov. “Teatr” O‘zbekiston Sovet Ensiklopediyasi, 1978 yil, X jild, 12 bet.
2. M.Rahmonov. “O‘zbek teatri” (qadim zamonalarda XVIII asrga qadar) hamda “O‘zbek teatri tarixi” (XVIII asrdan XX asr avvaligacha). O‘zbekiston SSR “Fan” nashriyoti, Toshkent, 1975 yil.
3. “O‘zbek teatr tarixidan” “Sharq yulduzi” jurnali, 1957 yil, 9-son 110-127 bet.
4. “O‘zbek sovet teatrining yaratilishi”. “Sharq yulduzi” jurnali, 1958 yil, 3-son 110-127 bet.
5. “Teatrshunoslik”. O‘zbekiston Sovet ensiklopediyasi, 1978 yil, X jild, 16 bet/